

Foydalanish shartnomasi

(Ommaviy oferta)

Toshkent shahri

01.06.2021

Ushbu shartnoma bir tomondan **Yuridik.uz** nomi ostida faoliyat olib boruvchi **“Legal Innovations Centre” MCHJ** (matnda keyingi o‘rinlarda – “Sayt” yoki “Ma‘muriyat” deb yuritiladi) va ikkinchi tomondan internet tarmog‘ining foydalanuvchilari (har qanday yuridik va jismoniy shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar) (matnda keyingi o‘rinlarda – **“Foydalanuvchi”** deb yuritiladi) o‘rtasida “<https://yuridik.uz>” saytidan foydalanish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish uchun shartnoma (matnda keyingi o‘rinlarda Shartnoma yoki Oferta deb yuritiladi) tuzish haqidagi rasmiy taklifi (ommaviy ofertasi) hisoblanadi.

Sayt Internet tarmog‘ida <https://yuridik.uz> manzili bo‘yicha joylashgan bo‘lib, u foydalanuvchilarga yuridik xizmatlarga buyurtma berish va advokatlarga (bajaruvchilarga) murojaat qilish imkonini beradigan onlayn savdo-platformasi shaklidagi kompyuter dasturidir. Advokatlar sayt yordamida mijozlarni qidirish va onlayn xizmatlar, shu jumladan yuridik xizmatlarni taqdim etishlari mumkin. Shuningdek, sayt ro‘yxatdan o‘tgan ommaviy axborot vositasi - OAV hisoblanadi.

1.Asosiy Tushunchalar

1.1. Ushbu shartnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

Foydalanuvchi – Saytdan va uning funksiyalaridan foydalanishni boshlagan yoki Mijoz yoki Yurist yoki Advokat sifatida ro‘yxatdan o‘tgan Saytga tashrif buyuruvchi har qanday yuridik va jismoniy shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor;

Mutaxassis – Saytda advokat, yurist (huquqshunos) yoki advokatlik tuzilmasi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan, Sayta o‘zining hisob qaydnomasiga ega bo‘lgan foydalanuvchi;

Mijoz - Saytda xizmatlardan foydalanish maqsadida ro‘yxatdan o‘tgan va o‘z hisob qaydnomasiga ega foydalanuvchi;

Yuridik yordam (xizmat) – Advokat va yurist tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rsatiladigan xizmatlar;

Axborot va maslahat xizmati – ushbu shartnoma doirasida Sayt orqali ko‘rsatiladigan Sayt xizmatlari;

Vositachilik haqi – Sayt tomonidan foydalanuvchilar o‘rtasida yuridik yordam ko‘rsatish ishlarini tashkil qilish maqsadida ko‘rsatilgan Sayt xizmatlari uchun belgilangan ommaviy tariflar va/yoki mazkur Shartnomada ko‘rsatilgan miqdor bo‘yicha to‘lanadigan xizmat haqi;

Sayt (Ma'muriyat) – “Legal innovations Centre” mas’uliyati cheklangan jamiyati, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Davlat Xizmatlari Markazi tomonidan ro‘yxatga olingan. STIR: 304900618, yuridik manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Katta Xirmontepa ko‘chasi, 1B-uy.

1.2. Shartnomada ushbu shartnomaning 1.1-bandida ko‘rsatilmagan atamalar ham qo‘llanilishi mumkin. Bunday atamalarning ma‘nosi Fuqarolik qonunchiligi, tegishli qonun hujjatlari va Shartnomaning matnidan kelib chiqqan holatda tushuniladi.

2. Aksept tartibi

2.1. Ushbu Ommaviy oferta aksepti Foydalanuvchini Saytda ro‘yxatga olish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Sayt iOS, Android platformalarida va www.yuridik.uz manzili bo‘yicha ishlaydi. Oferta aksepti amalga oshirilgan paytdan boshlab Shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

2.2. Foydalanuvchi ushbu shartnomada keltirilgan shartlarga rozi bo‘lmasa, saytdan foydalanishni to‘xtatishi lozim.

2.3. Foydalanish shartlari foydalanuvchilar tomonidan buzilganda Sayt ushbu shartnomani bir tomonlama qisman yoki to‘liq bekor qilishi, cheklovlar o‘rnatishi mumkin.

3. Shartnoma predmeti

3.1. Mazkur shartnomaga muvofiq, Mijoz Sayt xizmatlaridan foydalanadi va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun belgilangan tartibda haq to‘lash majburiyatini oladi, Mutaxassis Saytdan foydalangan holatda yuridik konsalting xizmatlarini ko‘rsatadi va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq olish huquqiga ega, Ma‘muriyat foydalanuvchilarga Sayt imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi va belgilangan tartibda haq oladi.

3.2. Shartnomada to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilmagan barcha holatlar bo‘yicha tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va ish muomalasi odatlariga amal qiladilar. Quyidagi hujjat mazkur Shartnomaning tarkibiy qismi hisoblanadi hamda ushbu Shartnomaning foydalanuvchi tomonidan aksept qilinishi ushbu hujjatlarning ham qabul qilinganligini anglatadi:

- <https://yuridik.uz/policies/terms-legal-services> manzili bo‘yicha joylashgan “Saytda yuridik xizmatlarni ko‘rsatish qoidalari”.

3.3. Ushbu Shartnoma (shu jumladan, uning biror qismi) bir tomonlama ravishda Sayt tomonidan ogohlantirilmasdan istalgan vaqtda o‘zgartirilishi mumkin. Agar hujjatlarning yangi tahrirlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, hujjatlarning yangi nusxalari ular chiqarilgan paytdan e‘tiboran kuchga kiradi. Foydalanish shartnomasiga

o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganidan keyin ham Foydalanuvchining Sayt xizmatlaridan foydalanishda davom etishi kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarning uning tomonidan qabul qilinganligini anglatadi.

3.4. Foydalanuvchi Saytda ro'yxatdan o'tgunga qadar Foydalanish shartnomasi bilan to'liq tanishib chiqishi shart. Foydalanuvchining Saytda ro'yxatdan o'tishi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 357, 364, 365, 366, 367, 369 va 370-moddalariga muvofiq Foydalanish shartnomasiga to'liq va so'zsiz rioya qilishini anglatadi.

3.5. Mazkur Foydalanish shartnomasi ochiq va ommaga mo'ljallangan hujjat hisoblanadi. Foydalanish bo'yicha kelishuvning amaldagi tahriri Internet tarmog'ida quyidagi manzilda joylashtiriladi: <https://yuridik.uz/policies/terms>.

3.6. Mazkur Shartnoma doirasida yuridik yordam ko'rsatish va uning sifati uchun javobgarlik Advokat/Yurist zimmasiga yuklatilgan.

4. Sayt maqomi

4.1. Sayt o'zida axborot tizimidagi EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar yig'indisini aks ettiradigan, bunday ma'lumotlarni Internet tarmog'idagi <https://yuridik.uz> manzilida ochiq joylashtirilishini ta'minlaydigan Internet resursi – axborot vositachisi hisoblanadi.

4.2. <https://yuridik.uz> (domen nomi) tarmoq manzili va undan foydalanish bilan bog'liq barcha huquqlar Sayt ma'muriyatiga tegishli. Saytdan manfaatdor shaxslarning foydalanishiga yo'l qo'yilishi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari hamda Foydalanish shartnomasiga muvofiq belgilanadi.

4.3. Saytning alohida bo'limlarida Foydalanuvchi va boshqa shaxslar tomonidan mustaqil joylashtirilgan (adabiy, musiqiy, audiovizual asarlar va fonogrammalar, grafika, dizayn va fotosurat mahsulotlari, EHM uchun dasturlardan tashqari) ma'lumotlar va intellektual faoliyat natijalaridan foydalanish huquqi Foydalanuvchi yoki boshqa shaxslarga tegishli hisoblanadi.

4.4. Jismoniy va yuridik shaxslar mazkur Foydalanish shartnomasi bo'yicha yoki Sayt ish faoliyati bilan bog'liq murojaat, taklif va shikoyatlari, shuningdek, vakolatli davlat organlarining so'rovnomalari mazkur shartnomaning 9-bandida ko'rsatilgan "Legal Innovations Centre" MCHJning pochta manzili yoki support@yuridik.uz elektron pochta manzili yoki telefon raqami yoki mijozlarni qo'llab-quvvatlash tegishli kanallari orqali qabul qilinadi.

4.5. Mazkur Foydalanish shartnomasi har qanday holatda Foydalanuvchiga firma nomi, tovar belgisi, domen nomi va Sayt ma'muriyatining boshqa taniqli belgilaridan foydalanish huquqini bermaydi. Firma nomi, tovar belgisi, domen nomi va Sayt ma'muriyatining boshqa taniqli belgilaridan foydalanish huquqi Sayt ma'muriyatining yozma roziligi bilan taqdim etilishi mumkin.

4.6. Ma'muriyat tomonidan Sayt faoliyatini yuritish va uni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

5.1. Tomonlar shartnomaga muvofiq quyidagi majburiyatlarni bajaradilar:

5.1.1. Sayt ma'muriyati:

- Foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash (ommaviy ochiq ma'lumotlar bundan mustasno);
- www.yuridik.uz saytining uzluksiz ishlashini ta'minlash va rivojlantirib borish;

5.1.2. Foydalanuvchi:

- ushbu Foydalanish shartnomasi (ommaviy oferta) talablarini bajarish;
- ro'yxatdan o'tish jarayonida va shaxsiy hisob qaydnomasida aniq va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish;
- Sayt xizmatlaridan foydalanish jarayonida (savol berishda, izoh qoldirishda va hokazo) qonunchilikka zid va uchinchi shaxslarning qonuniy manfaatlariga putur yetkazishi mumkin bo'lgan va reklama, erotik, pornografik hamda haqoratlash xarakteridagi so'zlar (ma'lumotlardan)dan foydalanmaslik;
- joylashtiriladigan (har qanday) axborot (material), izohlarda uchinchi shaxslarning mualliflik huquqlari, tovar belgilariga bo'lgan huquqlari, intellektual mulkning boshqa huquqlarini buzmaslik;
- ko'rsatilgan xizmatlar uchun xizmat ko'rsatish haqini o'z vaqtida to'lash;
- Saytdan g'ayriqonuniy maqsadlarda foydalanmaslik;
- o'zganing shaxsiy ma'lumotlariga oid hamda shaxsiy daxlsizlikka oid ma'lumotlarni sir saqlash;

5.2. Foydalanuvchi Sayt ma'muriyati so'roviga asosan ro'yxatdan o'tish paytida berilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart. Foydalanuvchi tomonidan Sayt ma'muriyatiga taqdim etilmagan yoki to'liq taqdim etilmagan hollarda Sayt ma'muriyati Foydalanuvchining ro'yxatdan o'tganligini bekor qilishi yoki Foydalanuvchi istagan shakldagidan ko'ra boshqa shaklda ro'yxatdan o'tkazishi mumkin.

5.3. Saytda boshqa foydalanuvchilarni adashtirishga yo'naltirilgan harakatlar shuningdek, quyidagilarni amalga oshirish qat'iy taqiqlanadi:

- o'zini boshqa odam sifatida ko'rsatish, xususan, boshqalarning ismlari yoki taxalluslar bilan bir necha marta a'zo bo'lish orqali bir necha hisob qaydnomalarini yaratish;
- yolg'on ma'lumotlar asosida hisob qaydnomasi yaratish, axborotni buzib ko'rsatish, o'zi haqida yolg'on axborotni joylashtirish va boshqalar;
- anketa formalariga so'ralmagan, lozim bo'lmagan axborotlarni joylashtirish;

– xabar kimga qaratilganini aniqlash imkonini bermaydigan darajada axborotni buzib izoh qoldirish;

- Sayt xizmatlaridan foydalanish jarayonida (savol berishda, izoh qoldirishda va hokazo) qo'pol imlo xatolariga yo'l qo'yish;

– Saytda o'zi shaxsan qabulida bo'lmagan yoki xizmatidan foydalanmagan mutaxassislar haqida izohlar qoldirish va baholash;

5.4. Saytda joylashtirilgan barcha obyektlar, shu jumladan dizayn elementlari, matn, grafik tasvirlar, illyustratsiya, video, skriptlar, dasturlar va boshqa obyektlar va ular majmuasi (keyingi o'rinlarda — Kontent) Sayt ma'muriyati, Sayt foydalanuvchilari va boshqa huquq egalari mualliflik huquqi bo'lib, bu obyektlarga bo'lgan huquqlar himoya qilinadi.

5.5. Ushbu Qoidalarda belgilanganlardan tashqari hamda amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hech qaysi Kontent muallif roziligini oldindan olmasdan turib ko'chirilishi (qayta e'lon qilinishi), qayta ishlanishi, tarqatilishi, ko'rsatilishi, chop qilinishi, yuklab olinishi, boshqaga o'tkazilishi, sotilishi yoki boshqacha usul bilan butunlay yoki qisman egallanishi mumkin emas, muallif oshkora ruxsat bergan hollar bundan mustasno.

5.6. Foydalanuvchi o'z shaxsiy Kontentidan tashqari boshqa saytlar Kontenti, ma'lumotlar bazasi va boshqa mualliflarga tegishli intellektual faoliyat natijalarini muallif roziligini olmasdan turib yuklashi yoki ularni Saytda e'lon qilishga haqli emas.

5.7. Ro'yxatdan o'tish jarayonida taqdim etilgan, shuningdek Foydalanuvchi o'z hisob qaydnomasida joylashtirgan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashiga rozilik bildirgan hisoblanadi. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

5.8. Sayt ma'muriyati Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini u Sayt xizmatlaridan foydalana olishi hamda Saytning xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan tegishli ma'lumotlarni tahlil qila olishi uchun qayta ishlashi mumkin.

5.9. Sayt ma'muriyati Foydalanuvchi shaxsiga tegishli barcha ma'lumotlarni g'ayriqonuniy ravishda olish, o'zgartirish, oshkor qilish yoki yo'q qilishni oldini olish bilan bog'liq choralarni ko'radi. Sayt ma'muriyati Foydalanuvchilarning ma'lumotlari bilan ishlash uchun faqatgina Sayt funksiyalarini sozlash va Foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish uchun lozim bo'lgan hollardagina ruxsat berishi mumkin.

5.10. Sayt ma'muriyati Foydalanuvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar, shuningdek shaxsiy ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablarini amalga oshirish maqsadida (shu jumladan, Foydalanuvchining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan ogohlantirish yoki uni to'xtatish maqsadida) foydalanishi mumkin. Foydalanuvchining ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga

muvofiq sud va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda qonun hujjatlari bilan vakolatli bo'lgan davlat tashkilotlari talabiga muvofiq taqdim etilishi mumkin.

5.11. Foydalanuvchining Saytdan foydalanishida ushbu Qoidalarga rioya etishi shubhali hisoblansa Sayt ma'muriyati o'z qarashidan kelib chiqib istalgan vaqtda oldindan ogohlantirmagan holda Foydalanuvchini o'chirishi, ta'qiqlashi yoki Foydalanuvchini ro'yxatga olish to'g'risidagi ma'lumotlarni majburiy tarzda o'zgartirishga haqli.

5.12. Sayt foydalanuvchi tomonidan Saytga kiritilgan va maxfiy bo'lmagan ma'lumotlarni (savollar, javoblar, izohlar va b.) huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatni oshirish, sayt faoliyatini rivojlantirish maqsadida foydalanishi, jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanishi mumkin. Mijoz tomonidan maxfiy bo'lmagan savollar matnlarida ochiq ko'rsatilgan ma'lumotlar maxfiy hisoblanmaydi va ular uchun Sayt javobgar emas.

6. Xizmatlar narxi va to'lov tartibi

6.1. Sayt tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan pullik xizmatlar ushbu Shartnoma bilan tartibga solinadi.

6.2. Ko'rsatiladigan xizmatlar uchun narx Foydalanuvchi yoki Mutaxassis tomonidan yoki belgilan tariflar bo'yicha belgilanadi hamda ko'rsatilgan narxni to'lash uchun keying qadamga o'tishi uning xizmat narxiga roziligini anglatadi.

6.3. Sayt yuridik yordamdan foydalanish maqsadida buyurtma bergan Mijozlarning ham, buyurtmalarga yoki murojaatlarga javob berayotgan Mutaxassislarning ham vakili hisoblanmaydi, shuning uchun bu boradagi moliyaviy majburiyatlar yuzasidan javobgar hisoblanmaydi.

6.4. Saytdan foydalanuvchi Mijoz va Mutaxassis o'rtasidagi har qanday kelishuv ikki tomonlama sanaladi hamda Sayt unga aloqador hisoblanmaydi. Yuridik yordam ko'rsatish uchun buyurtmani qabul qiluvchi javobgar hisoblanadi.

6.5. Nizoli vaziyatlarda Sayt ma'muriyati hakamlik vazifasini o'z zimmasiga oladi hamda masala to'laqonli ko'rib chiqilgandan so'ng muammoli vaziyatni Mijoz yoki Mutaxassis foydasiga hal etadi.

6.6. Sayt ma'muriyati Mijozlarga ushbu Shartnoma 7- va 8-boblarida belgilanganidek sifat, maxfiylik va xavfsizlik kafolatini taqdim etadi. Shuning bilan birgalikda pullik xizmatlar uchun to'langan pul mablag'ining faqatgina bir marta qaytarilishi kafolatlanadi. Ko'rsatilgan xizmat sifatidan qoniqmaganligi sababli Mijozning pul mablag'larini qaytarish to'g'risidagi talabi Sayt ma'muriyati tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Bunday talab Sayt ma'muriyati tomonidan Mijozga ko'rsatilgan xizmat sifati lozim darajada bo'lmagan, xizmat ko'rsatilmagan, xatolikka yo'l qo'yigan yoxud xizmat ko'rsatishda boshqa kamchiliklarga yo'l qo'yilgan taqdirda qanoatlantiriladi.

6.7. Mijoz tomonidan to'langan haq va buyurtmaga berilgan javobning muvofiqligini aniqlashda shunday narxga huquqiy bozorda qanday sifatdagi xizmat ko'rsatilishi o'rta me'yor hisobga olinadi.

7. Ma'lumotlar maxfiyligi qoidalari

7.1. Ma'lumotlar maxfiyligi qoidalari (matnda keyingi o'rinlarda – “Qoidalar” deb yuritiladi) Saytda ma'lumotlar maxfiyligi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solidi.

7.2. Qoidalar ro'yxatdan o'tish hamda foydalanish jarayonida Sayt Foydalanuvchi haqida olishi mumkin bo'lgan barcha axborotlarga nisbatan qo'llaniladi. Foydalanuvchining Saytdan ro'yxatdan o'tishi va foydalanishi Qoidalarga va undagi Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash bilan bog'liq shartlarga so'zsiz roziligini bildiradi. Agar Foydalanuvchi ushbu shartlarga rozi bo'lmasa, Saytdan foydalanmasligi kerak.

1-§. Sayt tomonidan olinadigan va foydalaniladigan ma'lumotlar

7.3 Ushbu Qoidalar doirasida “Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari” deganda quyidagilar tushuniladi:

7.3.1. Saytdan ro'yxatdan o'tish (hisob qaydnomasini yaratish) va foydalanish jarayonida foydalanuvchi o'zi haqida beradigan ma'lumotlar;

7.3.2. Saytdan foydalanish chog'ida Foydalanuvchida o'rnatilgan dasturiy ta'minot orqali avtomatik ravishda uzatiladigan ma'lumotlar, xususan, IP-manzil, cookie'dan olingan ma'lumotlar, Foydalanuvchining brazueri (yoki Saytga kirish amalga oshirilayotgan boshqa dastur) to'g'risidagi ma'lumot, kirish vaqti, so'ralayotgan sahifa manzili.

7.4. Ushbu Qoidalar faqat Sayt doirasida amal qiladi. Sayt sahifalarida uchinchi shaxslar tomonidan qoldirilgan bo'lishi mumkin bo'lgan saytlarni nazorat qilmaydi va ular uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olmaydi. Bunday saytlarda Foydalanuvchidan boshqa ma'lumotlar so'ralishi yoki to'planishi, shuningdek, boshqa harakatlar amalga oshirilishi mumkin.

7.5. Sayt Foydalanuvchi tomonidan joylashtirilgan shaxsiy ma'lumotlarning aniqligini va ularning yaroqliligini tekshirmaydi. Biroq Foydalanuvchi o'zi haqida aniq va ro'yxatdan o'tish formasidan so'ralganidek yetarli darajada shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etganiga tayanadi va amalda ushbu ma'lumotlarni qo'llab-quvvatlaydi.

2-§. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va qayta ishlashdan maqsad

7.6. Sayt faqat o'z xizmatlarini taqdim etish uchun kerakli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni to'playdi va saqlaydi.

7.7. Sayt Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlaridan quyidagi maqsadlarda foydalanilishi mumkin:

7.7.1. Sayt bilan tuzilgan Foydalanish shartnomasi (Ommaviy oferta) asosida Foydalanuvchini identifikatsiya qilish;

7.7.2. Foydalanuvchiga xususiy (individual) ish va xizmatlarni taklif qilish va ko'rsatish;

7.7.3. Zarur bo'lgan holatlarda, xususan, Saytdan foydalanish hamda xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bildirishnomalar, so'rovlar va ma'lumotlarni yo'naltirish, shuningdek, Foydalanuvchidan kelib tushgan so'rov va arizalar bilan ishlash vaqtida Foydalanuvchi bilan aloqada bo'lish;

7.7.4. Saytning ish sifatini yaxshilash, foydalanishdagi qulayliklarini oshirish, yangi xizmat turlarini ishlab chiqish;

7.7.5. Reklama materiallarini targeting yordamida (saralab) joylashtirish;

7.7.6. Egasi yashirilgan ma'lumotlar asosida statistik va boshqa tadqiqotlarni o'tkazish.

3-§. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash va uni uchinchi shaxslarga taqdim etish shartlari

7.8. Sayt Foydalanish shartnomasiga hamda har bir xizmatning alohida reglamentiga asosan Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini saqlaydi.

7.9. Foydalanuvchi o'zi haqidagi ma'lumotlarni to'liq ochiq qilib qo'yganidan boshqa holatlarda Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlariga nisbatan maxfiylik saqlanadi.

7.10. Sayt quyidagi holatlarda Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi tomonga taqdim etishi mumkin:

7.10.1. Foydalanuvchi shunday harakatga o'zining to'liq roziligini bildirsa;

7.10.2. Foydalanuvchi ma'lum bir xizmat turidan foydalanish chog'ida yoki Foydalanuvchiga qaysidir xizmatni ko'rsatish zarur bo'lgan holatlarda;

7.10.3. Ma'lumotlarni taqdim etish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ko'rsatilgan bo'lsa;

7.10.4. Sayt (to'liq yoki uning bir qismi) sotilgan vaqtda. Amaldagi Qoidalar shartlariga rioya qilish bo'yicha majburiyatlar xaridor zimmasiga yuklanadi;

7.10.5. Foydalanuvchi Saytning Foydalanish shartnomasiga rioya qilmagan holatlarda Sayt yoki uchinchi shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida.

7.11. Sayt tomonidan foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanish, qayta ishlash O'zbekiston Respublikasining tegishli qonun hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

4-§. Shaxsiy ma'lumotlarning o'zgartirilishi

7.12. Foydalanuvchi istalgan vaqtda "Sozlash" bo'limi orqali o'zi tomonidan joylashtirilgan shaxsiy axborotni yoki uning ma'lum qismini o'zgartirish (yangilash, chiqarib tashlash, to'ldirish) huquqiga ega.

7.13. Sayt Foydalanuvchining roziligi bilan shaxsiy ma'lumotlarini o'zgartirishi mumkin.

5-§. Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish maqsadida ko'riladigan choralar

7.14. Sayt Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari tasodifiy yoki noqonuniy yo'l bilan o'chib ketishi, o'zgartirilishi, blokirovka bo'lib qolishi, ma'lumotlarning ko'chirilishi, tarqatilishi, shuningdek, uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan boshqa noqonuniy harakatlarining oldini olish maqsadida Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish bo'yicha zaruriy, texnik va kerakli darajada tashkil qilingan choralarni ko'radi.

7.15. Fors-major holatlar natijasida ma'lumotlarning o'chib ketishi uchun sayt javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

6-§. Qoidalarning o'zgartirilishi. Tatbiq etiladigan qonunchilik

7.16. Sayt amaldagi Qoidalarni istalgan vaqtda o'zgartirish huquqiga ega. Amaldagi Qoidalar o'zgartirilganida uning o'zgartirilgan sanasi ko'rsatiladi. Agar yangi tahrirda boshqa shartlar ko'rsatilmagan bo'lsa, u e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7.17. Ushbu Qoidalar orqali amalga oshiriladigan Foydalanuvchi hamda Sayt o'rtasidagi munosabatlarga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tatbiq etiladi.

8. Kafolatlar

8.1. Yuridik.uz o'z mijozlariga sifati kafolatlangan, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini saqlagan holda va xavfsiz tarzda onlayn yuridik xizmatlarni taqdim etadi. Saytimiz orqali Siz huquqning istalgan sohasi bo'yicha istalgan vaqtda savolingizga professional yuristlardan javob olishingiz mumkin. Xizmatlardan foydalanyotganingizda sizning shaxsiy ma'lumotlaringiz xavfsizligini kafolatlaymiz (Ushbu Shartnomaning 7-bobi).

8.2. Sifatsiz ko'rsatilgan xizmat uchun to'langan pulni qaytarish. Agarda sizga Yurist yordam bermagan va/yoki savolingizga yetarlicha javob bermagan deb hisoblasangiz, biz sizga pulingizni qaytaramiz. Pulingizni qaytarish uchun savol berilgan sanadan

boshlab 30 kun ichida bizga yozing. Shikoyatlarni qabul qilish uchun email: appeal@yuridik.uz.

8.3. Pulni qaytarish siyosati faqatgina VIP tarifi doirasida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amal qiladi.

8.4. To'lov qaysi shaklda qilingan bo'lsa pulni qaytarish ham shu usulda amalga oshiriladi, to'lov usuli almashtirilmaydi.

8.5. Ko'rsatilgan xizmat uchun pulni qaytarish bo'yicha ariza sayt ma'muriyati tomonidan ko'rib chiqiladi.

8.6. Mijoz tomonidan to'langan haq va buyurtmaga berilgan javobning muvofiqligini aniqlashda shunday narxga huquqiy bozorda qanday sifatdagi xizmat ko'rsatishi o'rta me'yor hisobga olinadi.

8.7. To'langan mablag'ni qaytarish rad qilinganda mijoz sudga murojaat qilish huquqiga ega.

8.8. Sizing ishonchingizni oqlash faoliyatimizning bosh tamoyillaridan biridir. Ro'yxatdan o'tish jarayonida va loyihadan foydalanishning boshqa bosqichlarida kiritiladigan shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi ta'minlanadi, xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan zarur ma'lumotlar bundan mustasno.

8.9. Aloqa ma'lumotlaridan (telefon raqami, e-mail manzili) ma'muriyat tomonidan sizga bog'lanish va/yoki huquqshunoslar tomonidan savolning to'liq mazmunini aniqlashtirish uchun foydalanilishi mumkin.

8.10. Sayt ma'muriyati Foydalanuvchi tomonidan savol matnida joylashitirilgan ma'lumotlar xavfsizligi uchun javobgarlikni jimmasiga olmaydi.

8.11. Sayt ma'muriyati huquqshunoslar tomonidan mijoz bilan aloqador ma'lumotlarni oshkor etganligi uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

8.12. Agarda sizda loyiha faoliyati bilan bog'liq murojaat (savol, taklif, shikoyat va h.k.) bo'lsa, biz sizni barcha imkoniyatarimizdan foydalanib qo'llab-quvvatlashga va'da beramiz. Buning uchun bizga xabar qoldiring. Shuningdek, ekranning o'ng pastki burchak qismidagi onlayn-chat yordamida onlayn operator bilan bog'lanishingiz mumkin. ESLATMA! Texnik qo'llab-quvvatlash xizmati yuridik masalalar bo'yicha yuridik konsultatsiya ko'rsatmaydi, yuridik savollarni tegishli savol yo'llash bo'limlari orqali bering.

8.13. Hurmatli Foydalanuvchilar, Sizga yuqori sifatda xizmat ko'rsatish uchun barcha imkoniyatlarimizni ishga solamiz! Agarda qandaydir shikoyatingiz, taklifingiz bo'lsa, har qanday vaqtda xat yozishingiz mumkin. Loyiha bo'yicha fikringizni bildiring, yanada yaxshilash uchun g'oyalar bering. Biz sizning fikringizni va ishonchingizni qardlaymiz! Sizing tanlovingiz va bildirgan ishonchingizdan faxrlanamiz!

9. Tomonlarning javobgarligi

9.1. Tomonlar ushbu Shartnoma shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

9.2. Foydalanuvchi ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik natijasida unda yuzaga keladigan har qanday zararlar yoki boshqa salbiy oqibatlar uchun javobgar bo‘ladi.

9.3. Foydalanuvchi o‘z shaxsiy ma’lumotlarini muhofaza qilinmagan bog‘lanishlardan foydalanadigan qurilmaga kirtishda yoki ular zarar keltiradigan dasturlar va ilovalar tahdidi ostida bo‘lgan holda ularning sozligi uchun to‘liq javobgar bo‘ladi.

9.4. Sayt Shartnoma shartlarini lozim darajada bajarmaganlik uchun, agar bunday bajarmaslik Foydalanuvchi tomonidan Shartnoma shartlarining bajarilmasligi oqibati bo‘lsa, javob bermaydi.

9.5. Sayt Foydalanuvchi ushbu shartnoma shartlari bilan, shuningdek Ilovada pullik servislarni faollashtirish vaqtida ularning ofertalari bilan tanishmagani va (yoki) o‘z vaqtida tanishmagani tufayli Foydalanuvchida yuzaga kelgan har qanday zararlar uchun javob bermaydi.

9.6. Sayt Shartnoma shartlarini lozim darajada bajarmaganlik uchun, agar bunday bajarmaslik Sayt nazorati doirasidan tashqaridagi sabablar bilan belgilangan bo‘lsa, javob bermaydi. Sayt nazorat doirasi faqat saytning o‘z ishlash qobiliyati bilan cheklanadi va uchinchi shaxslarning aybi bilan yuz bergan nosozliklar yoki davlat idoralari yoki sud hokimiyati organlari tomonidan belgilangan taqiqlar va cheklashlar tufayli ishda yuz bergan uzilishlar uchun javobgarlikni o‘z ichiga olmaydi.

9.7. Tomonlar ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan, agar bunday bajarmaslik Shartnoma tuzilgandan keyin Tomon oldindan ko‘ra bilishi ham, oqilona choralar bilan oldini olishi ham mumkin bo‘lmagan favqulodda hodisalar natijasida yuzaga kelgan yengilmas kuch holatlari (fors-major) oqibati bo‘lsa, ozod qilinadilar.

10. Shartnomaning bekor bo‘lishi

10.1. Foydalanuvchi istalgan vaqtda Shartnomani bajarishdan Yuridik.uz saytidagi hisob qaydnomasini o‘chirib tashlash yo‘li bilan bosh tortishga haqli.

10.2. Foydalanuvchi o‘z hisob qaydanomasini bekor qilish orqali shartnomani bir tomonlama bekor qilishi mumkin.

10.3. Shartnoma hisob qaydnomani o‘chirib tashlanganidan keyin bekor qilingan hisoblanadi. Tomonlar shartnoma bekor qilingunga qadar vujudga kelgan majburiyatlarni bajaradilar. Shu jumladan, agar sayt doirasida pullik xizmatlar uchun

buyurtma berilgan bo'lsa, bunday xizmatlar bo'yicha Shartnomalar bekor bo'lganini anglatmaydi.

11. Nizolarni ko'rib chiqish tartibi

11.1. Ushbu Shartnomadan kelib chiqqan har qanday nizo tinch yo'l - muzokaralar bilan yoki Foydalanuvchining yozma murojaatiga binoan e'tiroz bildirish tartibida ko'rib chiqiladi. Murojaatni ko'rib chiqish muddati va uning mazmuniga qo'yiladigan talablar mazkur shartnoma va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

11.2. Yuzaga kelgan nizo e'tiroz bildirish tartibida hal etilmagan taqdirda, u javobgar joylashgan yerdagi tegishli sud tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqilishi lozim.

12. Boshqa shartlar

12.1. Saytda joylashtirilgan har qanday sayt, mahsulot, xizmat, tijoriy yoki notijoriy xususiyatdagi har qanday ma'lumot Sayt ma'muriyati tomonidan ularni tavsiya qilish mazmunini anglatmaydi.

12.2. Foydalanuvchi va uchinchi shaxslar tomonidan Sayt Kontentidan notijorat maqsadida foydalanishga barcha mualliflik belgilarini yoki mualliflik to'g'risidagi boshqa eslatmalarni saqlash, muallif ismini va Kontent mazmunini o'zgartirmasdan saqlash sharti bilan ruxsat etiladi.

13.3. Uchinchi shaxslarning Saytlari va Kontentlari:

12.3.1. Saytda Internet tarmog'i (uchinchi shaxslarga tegishli saytlar)dagi boshqa saytlardagi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan qo'riqlanadigan intellektual faoliyat natijalari hisoblanadigan maqolalar, fotosuratlar, illyustratsiyalar, grafik tasvirlar, ma'lumotlar, ilovalar, dasturlar va boshqa Kontentlarga havolalar mavjud (bo'lishi mumkin).

12.3.2. Uchinchi shaxslarga tegishli ekanligi ko'rsatilgan Kontentlar Sayt ma'muriyati tomonidan u yoki bu talablar (ishonchlilik, tugallik, xolislik)ga muvofiqligi tekshirilmaydi. Foydalanuvchiga ruxsat etilgan yoki u uchinchi shaxslardan Kontentidan olingan Saytda joylashtirilgan uchinchi shaxslarga tegishli har qanday ma'lumot, shuningdek uchinchi shaxslar tomonidan bildirilgan yoki ularning Kontentida bildirilgan ifodalar, fikrlar yoki tasdiqlar uchun Sayt ma'muriyati javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

12.3.3. Saytda joylashtirilgan uchinchi shaxslarga tegishli ilovalar yoki faylni yuklab olish yoxud o'rnatish bo'yicha yo'riqnomalar Sayt ma'muriyatining ushbu ilova, fayl yoki dasturlarni qo'llab-quvvatlashini anglatmaydi.

12.3.4. Saytda joylashtirilgan har qanday sayt, mahsulot, xizmat, tijoriy yoki notijoriy xususiyatdagi har qanday ma'lumot Sayt ma'muriyati tomonidan ularni tavsiya qilish mazmunini anglatmaydi.

12.4. Shartnomaning biror qismi bilan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari o'rtasida ikki xil yondashuv bo'lganda, amaldagi O'zbekiston Respublikasining normativ-hujjatlari ustuvor hisoblanadi. Shartnomada to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilmagan barcha holatlar bo'yicha tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va ish muomalasi odatlariga amal qiladilar.

12.5. Foydalanuvchi ushbu Oferta aksepti bilan Shartnomaning barcha shartlariga so'zsiz rozi ekanligini tasdiqlaydi va uni bajarish majburiyatini oladi.

12.6. Saytning tegishli xizmatlari va bo'limlarida ulardan foydalanishga oid qoidalar, ko'rsatmalar, ma'lumotlar va tavsiyalar ushbu Shartnomaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Foydalanuvchi Saytning ushbu xizmatlari va bo'limlaridan, funksiyalaridan foydalanish orqali ulardagi qoidalar, ko'rsatmalar, ma'lumotlar va tavsiyalarga rozilik bildirgan hisoblanadi.

13. Sayt ma'muriyatining rekvizitlari

Ma'muriyat: "Legal Innovations Centre" MCHJ

Manzil: Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Katta Xirmontepa ko'chasi, 1B-uy

H/R: 2020 8000 6007 7332 8001

STIR: 304 900 618

Bank kodi: 00969

Bank: "Asaka" ATB Shayxontohur filiali

Telefon: +998998373777

Email: support@yuridik.uz

So'nggi o'zgartirilgan vaqti: 01.06.2021-yil